

METODIKA ONASIGA TA'ZIM.

Xusinova Laylo Nazarboy qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti nemis tili amaliy fanlar kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz metodika fani o'qituvchi ish jarayonida juda muhim aspektlardan ekanligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Metod, faoliyat, kompetensiyalar, o'z-'zini rivojlantirish, pedagogik jarayon, o'quv material, amaliyot, talaba

Аннотация: В данной статье мы будем считать, что методическая наука является одним из важнейших аспектов в процессе работы учителя.

Ключевые слова: Метод, деятельность, компетенции, саморазвитие, педагогический процесс, учебный материал, практика, студент.

Abstract. In this article, we will consider that methodological science is one of the most important aspects in the work process of a teacher.

Key words: Method, activity, competencies, self-development, pedagogical process, educational material, practice, student

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — vo-qelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish Metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid Metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan

yo‘l-yo‘riqlar, Metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy Metodlari vujudga keldi

Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan Metod funksiyasiga egadir. Metod, o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan Metod bilan ilmiy nazariya funk-siyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Falsafa va fanlar tarixida ilmiy Metodning mohiyatini tadqiq etish, yangi-yangi Metodlarni kashf etish alohida ahamiyatga egadir. Har qanday bukj ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni kashf qilishda qo‘llagan ilmiy Metodi ko‘proq ahamiyatga egadir, chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qo‘llagan ilmiy Metodga tayanib ko‘plab kashfiyotlarni ochishi mumkin.

Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo‘linadi: yalpi umumiy bilish Metodlari — hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham ko‘llaniladigan umumiy va universal Metodlar — metodologiya; umumiy bilish Metodlari – bir qancha yoki barcha fanlarda qo‘llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o‘tish chegarasi)da qo‘llaniladigan bilish Metodlari; xususiy yoki maxsus Metodlar – ayrim fan doirasida qo‘llaniladigan bilish Metodlari.

O‘rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan M.larini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo‘lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qullaniladigan yo‘l-yo‘riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu Metodlarni ishlab chikuvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham Metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar Metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.

Hozirgi zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy ilmiy Metodlar qo‘llaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik Metod larning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish Metodlari

jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy Metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir-asrorlarini ochishda yordam bermoqda.

Ustozlar haqida so'z yuritilar ekan doimo Iskandar Zulqarnayn to'g'risidagi hikoya yodimga tushadi. U ishg'ol qilgan yurtining taxtiga birinchi bo'lib ustozini o'tkazar ekan. Bir kuni undan: "Nima uchun bunday qilasiz?" deb so'rashganda: "Ota-onam tug'ilishimga, ustozim esa yuksalishimga sababchi bo'lganlar", degan ekan. Poshshaxo'ja ham ustozlarning mehnatisiz hech kim yuksala olmasligini aytib, Iskandarning o'z ustoziga bo'lgan hurmatini keltirib o'tgan:

Hech kim ustozsiz topmas jahonda izzu joh,

Nechakim hashmat bila Iskandari davron erur.

Darhaqiqat, biz erishgan har bir yutuqda ustozlarimizning hissalarini mavjud.

Xurmatli ustozim Dadaxo'jayeva juda serqirra inson edilar. Metodlar to'g'risida gap ketganda hamish u kishi ko'z oldimda gavdalanadi.

Zamonaviy interfaol darslar, fonetika va grammatika oid metodlarni eng birinchi u kishi darslarida ko'rib o'rganganmiz. Maktab darsliklarini ko'pincha juda zamonga moslab qilish uchun maktablarda qanchadan qancha vaqtlarini o'tkazganlariga guvoh bo'lganman.

Chet tili — bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ular ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi: birinchidan, ona tilida tafakkur shakllanadi, o'zga tillarni o'rganish ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog'liqdir; ikkinchidan, o'rganish tartibi ona tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o'tiladi; uchinchidan, ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Qayd etilgan muhokamadan ayon boladiki, uchala til orasida chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashlarni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini

aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Til tajribasi termini Yevropa tillarida chop etilgan metodik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, chunki rus (Rossiya Federatsiyasi nazarda tutiladi), ingliz, nemis, fransuz maktablarida yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. O'zbekiston maktablarida esa ona tili va ikkinchi tildan hamda o'rganilayotgan chet tilning o'zidan to'plangan yaxlit til tajribasi xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir

O'quvchilarning til tajribasi uch tildan yig'ilgani bilim, ko'nikma va malakalar (kompetensiya) majmuasi (sintezi) bo'lib, uning hajmi, qo'llanish ko'lami, o'zaro bog'liqligi masalalari metodikaning til tajribasini hisobga olish prinsipi doirasiga kiradi. Til tajribasini hisobga olish deganda, o'quvchi shu kungacha o'zbek, rus, chet til (ingliz, ispan, nemis yoki fransuz tili)dan olgan bilim, ko'nikma va malakasining hozir o'rganayotgan chet til materialini o'zlashtirishga salbiy (interferensiya) yoki ijobiy (transpozitsiya/fatsilitatsiya) ta'siri tushuniladi. Masalan, chet tildagi „artikl“ atalmish grammatik hodisani o'rgatish chog'ida, uning o'zbek tilida mavjud emasligi tufayli, mazkur grammatik kategoriyaga oid „artikl“ tushunchasi shakllantiriladi. Oqibatda o'quvchi til tajribasi endi chet tildagi „yangilik“ bilan boyiydi. Grammatikadan hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlar o'rganishda ularning qo'llanilishi (funksiyasi), yasalishi (shakli) va ma'nosi (semantikasi) alohida metodik yondashishni talab etadi. Fe'l zamonining funksiyaviy tarafi o'quvchilar uchun deyarli qiyinchilik tug'dirm aydi, chunki grammatik hodisaning „takrorlanib turadigan ish-harakatni ifodalashi“ o'zbek tilidan ma'lum. Bunday holat o'quvchilar ona tilisi tajribasidan olgan bilimlari yordamida chet til hodisasini egallashga imkon tug'diradi. Ushbu fe'l zamonining yasalishi (formasi) esa o'zbek va chet tilda butunlay farq qiladi. Chet tildagi ikki so'z (yordamchi va yetakchi fe'llar)dan tuziladigan zamon shaklini o'rganishda o'quvchilar til tajribasi tarkibida mavjud ruscha (ikkinchi til)dan foydalanish ma'qul (буду+делать, будешь+ходить). Zero, o'quvchiga ona tilida fe'l zamonini yasalishi chet til hodisasi (kelasi zamon)ni o'rgatishda usluban maqbul emas, bu o'rinda, ona tili tajribasi to'sqinlik qilishi (interferensiya) muqarrar. Demak, o'quvchilarning til tajribasi chet til o'rganishda g'ov bo'lishi (salbiy ta'sir — interferensiya) yoki yordam berishi (ijobiy

ta'sir — transpozitsiya) kuzatiladi. Binobarin, chet til muallimi o'quvchilarning ona tilini, ikkinchi tilni va o'rganilayotgan chet tilni amaliy va nazariy puxta bilmog'i darkor. Shuningdek, o'qituvchining o'qitish metodikasidan atroflicha xabardor bo'lishi talab qilinadi, deganlar ustozimiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, hozirgi kunda ko'plab metodlarni o'rganamiz va o'rgatamiz, lekin baribir ustozlarimizning birinchi o'rgatgan bilimlari asosida bu xayotni borligidan boshqacha ko'ramiz.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Chet tilini o'rgatish metodikasi, Jamol Jalolov 2012 Namangan
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Metod>